XALQ DEPUTATLARI XO‘JAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 18-aprel VII-15-37-1-27-K/26 Xo‘jaobod tumani

2026-yil Xo‘jaobod tumani bo‘yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Xojaobod tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari tuman Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi va tuman Kengashiga shu mazmundagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimovning 2026-yil 13-fevraldagi № 02/16-46 sonli, Xo‘jaobod tumani DSI boshlig‘i S.Ibroximovning 2026-yil 19-fevraldagi № 21-sonli xati bilan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Xo‘jaobod tumani hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (A.Mirzaolimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (N.Oblanazarov), tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (S.Ibrohimov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror O`zbekiston Respublikasining “Normativ-xuquqiy xujjatlar to`g`risida” gi Qonunining 40-moddasiga asosan rasmiy e`lon qilingan kundan e`tiboran uch oy o`tgandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (R.Baxtiyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Mirzaolimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MAMADALIYEV ZOKIR SOTVOLDIYEVICH**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2026-yil 18-apreldagi
VII-15-37-1-27-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlar stavkalari

Yig‘im turi	**Bir oyga (so‘mda)**	
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori**
“Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	180 000